



MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATIDA IJODIY JAMOALARNING O‘RNI

Niyazbekov Jamshidbek Muxsin o‘g‘li

*O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat
vazirining ma‘naviyat va davlat tili
masalalari bo‘yicha maslahatchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Madaniyat markazlari faoliyatiga oid statistik ma‘lumotlar, amalga oshirilgan ishlar va madaniy-ma‘naviy hayotni boyitish, aholiga badiiy zavq ulashish va milliy san‘atni ommalashtirishda xalq havaskorlik jamoalarining muhim o‘rini yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Madaniyat markazi, qadriyatlar, ijodiy xodim, to‘garak rahbari, badiiy rahbar, madaniyat va san‘at sohasi, aholi.*

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimida jami **839 ta madaniyat markazi** faoliyat yuritmoqda. Ushbu markazlar aholi, ayniqsa yoshlarning madaniy hayotini boyitish, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish va bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazishda muhim o‘rin tutadi.

Mazkur markazlarda **4984 nafar ijodiy xodimlar** mehnat qilmoqda. Bu ko‘rsatkich madaniyat muassasalarida ijodiy salohiyatning keng qamrovli ekanini ko‘rsatadi.

Ijodiy xodimlar tarkibi quyidagicha shakllangan:

2927 nafar to‘garak rahbarlari — aholi, ayniqsa bolalar va yoshlar o‘rtasida to‘garaklar faoliyatini tashkil etmoqda;

208 nafar badiiy rahbarlar — markazlar faoliyatining badiiy yo‘nalishini boshqarmoqda;

208 nafar rejissyorlar — madaniy tadbir va tomoshalarning badiiy ijrosini ta‘minlamoqda;

804 nafar ovoz rejissyorlari — konsert va tadbirlarda texnik va ovoz jihatidan sifatni ta‘minlaydi;

208 nafar to‘garaklar faoliyatini nazorat qiluvchi mutaxassislar — samaradorlik va uslubiy ishlarni muvofiqlashtiradi;

210 nafar yoshlar bilan ishlash bo‘yicha mutaxassislar — yoshlar siyosati va madaniy faollik yo‘nalishlarini amalga oshiradi.

2024-yil davomida madaniyat markazlari tomonidan jami **9 765 ta madaniy-ma‘rifiy tadbir** va **15 580 ta konsert-tomosha dasturi** tashkil etilgan. Bu ko‘rsatkich madaniyat markazlarining joylarda aholi bilan doimiy muloqotda ekanini va madaniy hayotda faol ishtirokini namoyon etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi 4038-son qarori asosida **2019–2022-yillarda madaniyat markazlari faoliyati samaradorligini oshirish,**

ularida qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish bo'yicha manzilli dastur [1]tasdiqlangan.

Bu qaror madaniyat sohasini infratuzilmaviy jihatdan rivojlantirishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

Dastur ijrosi doirasida **2019–2022-yillarda jami 61 ta madaniyat markazi** to'liq ta'mirlandi va modernizatsiya qilindi.

Bu ishlar uchun davlat byudjeti hisobidan **183 milliard so'm** mablag' ajratildi.

Ta'mirlash ishlari natijasida moddiy-texnik baza yangilandi, bino-inshootlar zamonaviy talablarga mos holda jihozlandi.

Bu esa madaniyat markazlarining ijodiy faoliyatini mazmunan boyitish va aholi uchun qulay madaniy muhit yaratish imkonini berdi.

2023-yilda madaniyat markazlarining moddiy va uslubiy ta'minotini mustahkamlash maqsadida ularga:

5 turdagi 5000 ta milliy musiqa cholg'ulari,

5 nomdagi jami 10 664 ta o'quv-uslubiy qo'llanma va tavsiyanomalar, 5 ta video-qo'llanma yetkazib berildi.

Bu jarayon madaniyat muassasalarining ta'limiy va amaliy salohiyatini oshirib, to'garaklar faoliyatini zamonaviylashtirdi.

Madaniyat markazlari faoliyatini mazmunan boyitish maqsadida so'nggi **uch yil ichida** qator yangi tashabbuslar amalga oshirildi:

28 ta havaskorlik teatr studiyasi,

24 ta o'quv kursi,

45 ta baxshichilik san'ati to'garagi,

15 ta maqom san'ati to'garagi,

7 ta oilaviy ansambl faoliyati yo'lga qo'yildi.

Bu ijodiy birlashmalar milliy madaniyat va ma'naviy qadriyatlarni ommalashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur ko'rsatkichlar madaniyat markazlari nafaqat konsert va tadbirlar tashkil etuvchi muassasalar, balki **ijod, ma'rifat va milliy o'ziga xoslikni targ'ib etuvchi madaniy markazlar sifatida shakllanib borayotganini** ko'rsatadi.

Mamlakatimizda madaniy-ma'naviy hayotni boyitish, aholiga badiiy zavq ulashish va milliy san'atni ommalashtirishda xalq havaskorlik jamoalari muhim o'rin tutadi.

Madaniyat markazlarida to'garaklar, studiya va jamoalarni tashkil qilishning asosiy maqsadi esa aholi, ayniqsa, bolalar va yoshlarning darsdan va ishdan keyingi bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish, ularning qobiliyatlari va intilishlarini maqsadli rivojlantirish, olingan nazariy bilimlarini mustahkamlash va amalda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish, kasbiy mahoratlarini oshirishga keng imkoniyatlar yaratish hamda tanlangan kasbiy yo'nalishlari bo'yicha mehnat bozoriga tayyorgarlik salohiyatini kuchaytirishdan iboratdir.[2]

Madaniyat vazirligi tizimidagi madaniyat markazlarida 2025-yil holatiga ko'ra, respublika bo'yicha **jami 597 ta unvonga ega bo'lgan xalq havaskorlik jamoasi** faoliyat olib bormoqda.

Ushbu jamoalar "Folklor-etnografik xalq jamoasi", "Xalq teatri", "Xalq xori", "Ashula va raqs xalq ansambli" va "Namunaviy bolalar jamoasi" kabi yo'nalishlarda faoliyat yuritadi.

Jamoalarning faoliyati xalq ijodiyoti, milliy musiqa va raqs san'atini rivojlantirishga qaratilgan.

Ular nomoddiy madaniy merosni saqlash bilan birga, zamonaviy ijodiy yondashuvlarni joriy etishda ham faol ishtirok etadi. Har bir jamoa o'z hududidagi madaniyat markazlari, teatrlar va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ijodiy faoliyat olib boradi.

2025-yil uchun ushbu 597 ta jamoaning **repertuarlari va konsert-tomosh dasturlari reja-grafigi** to'liq ishlab chiqilib, madaniyat vazirining tegishli buyrug'i bilan rasman tasdiqlangan.

Mazkur reja-grafik jamoalar faoliyatini tizimli tashkil etish va ularning ijodiy dasturlarini muvofiqlashtirish imkonini yaratadi. Repertuarlar zamonaviy talablar asosida yangilangan bo'lib, unda milliy an'analar, zamonaviy kompozitsiyalar va vatanparvarlik ruhidagi asarlar ustuvor o'rin egallaydi.


Havaskorlik jamoalari faoliyatini yuritishdan maqsad mamlakat aholisi orasida milliy qadriyat va urf-odatlarni faol targ'ib etish va ularning ijodini keng jamoatchilikka yetkazishdan iborat.

Tahlillarga ko'ra, 2025-yilning birinchi yarim yilligida respublika bo'yicha **328 ta unvonga ega bo'lgan xalq havaskorlik jamoalari** faol ishtirok etgan. Ular ishtirok etgan tadbirlar soni va darajasi jamoalarning ijodiy salohiyati yuqori ekanini ko'rsatadi.

Xususan, jamoalar **7 ta xalqaro miqyosdagi festival va tadbirlarda** ishtirok etishga muvaffaq bo'lgan. Shuningdek, **11 ta respublika darajasidagi katta madaniy-ma'rifiy anjumanlarda** faol qatnashgan. Bu tadbirlar mamlakatning madaniy imijini xalqaro maydonda mustahkamlashda muhim rol o'ynadi.

Xalqaro tadbirlarda qatnashish jamoalarga o'z ijodiy tajribasini namoyish etish va boshqa davlatlar bilan madaniy aloqalarni rivojlantirish imkonini beradi. 2024-2025-yillar davomida Xorazm, Surxondaryo, Buxoro, Jizzax, Sirdaryo va Toshkent viloyatidagi madaniyat markazlarida faoliyat olib boruvchi folklor-etnografik jamoalar va ashular va raqs ansablari Turkiya, Rossiya, Italiya, Qatara, Malayziya, Singapur, Fransiya, Germaniya, Saudiya Arabistoni, Qozog'iston, Turkmaniston kabi davlatlarda gastrol safaralariga yuborilgan. Shuningdek, respublika miqyosidagi tadbirlarda esa ular milliy san'atning turli yo'nalishlarini muntazam namoyish etadi.

Havaskorlik jamoalarining mahalliy va xorijiy tadbirlardagi ishtiroki madaniy siyosatdagi "har bir hudud-madaniyat markazi" tamoyilini amalda ta'minlashga xizmat qiladi.



2025-yilning yarim yilligida ular **158 ta hududiy miqyosdagi ommaviy madaniy tadbirlarda** qatnashgan. Bu ko'rsatkich ularning respublika bo'ylab keng qamrovli faoliyat yuritayotganini isbotlaydi. Har bir jamoa o'z hududida aholi bilan yaqin muloqotda bo'lib, madaniy muhitni boyitishga amaliy hissa qo'shmoqda.

Shu bilan birga, jamoalarning faoliyati madaniy turizm sohasi bilan ham uzviy bog'langan. Hozirgi kunda **68 ta unvonga ega bo'lgan jamoa 70 ta turistik obyektlarda** muntazam ravishda konsert dasturlarini namoyish etmoqda. Bu faoliyat mahalliy va xorijiy turistlar uchun milliy madaniyat bilan yaqindan tanishish imkonini yaratadi. Turizm sohasi bilan integratsiya madaniy tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini ham oshirmoqda.

Bunday konsertlar orqali xalq ijodiyoti milliy brend sifatida namoyon bo'lmoqda. Turistik obyektlarda tashkil etilayotgan konsert dasturlari hududlar madaniy imijini ko'tarishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu tashabbus "madaniyat va turizm uyg'unligi" konsepsiyasini amalda ro'yobga chiqarishdagi muhim qadam hisoblanadi.

Jamoalarning konsert dasturlari turistlarda milliy musiqa, raqs va an'anaviy liboslarga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Shu orqali ular xalq diplomatiyasi va madaniy muloqot vositasiga aylanadi. Bunday faoliyat mamlakat madaniyatini xalqaro darajada targ'ib qilishda katta ahamiyatga ega.

Jamoalar faoliyati doimiy ravishda Madaniyat vazirligi va hududiy bo'linmalar tomonidan uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlanadi. Ularga rejissyorlik yondashuvlar, sahna bezaklari va liboslar bo'yicha tavsiyalar berib boriladi.

Har bir hududdagi jamoalarning ijodiy ko'rsatkichlari yil yakunida tahlil qilinadi. Eng faol va ilg'or jamoalar "Eng yaxshi xalq ansambli", "Eng yaxshi raqs jamoasi" kabi nominatsiyalar bilan taqdirlanadi. Mazkur tizim ijodiy raqobat va mahoratni oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Halq havaskorlik jamoalarining ijodiy faoliyati aholi uchun madaniy-ma'rifiy maktab vazifasini bajaradi.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, madaniyat markazlari tizimida amalga oshirilgan chora-tadbirlar mamlakatimizda **madaniy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri** bo'lib, xalqimiz ma'naviy yuksalishi va yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Madaniyat markazlarida faoliyat olib borayotga unvonga ega bo'lgan xalq havaskorlik jamoalari mamlakat madaniy hayotining yuragi, milliy san'atimiz sha'ni va xalq madaniyatining tirik timsoli hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabr "O'zbekistonda milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-sonli qarori. www.lex.uz
2. M.Xolmo'minov. Milliy madaniyat – renessans poydevori [Matn]: monografiya. – Toshkent: «Donishmand ziyosi», 2024. – 160 bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi arxiv hujjatlari